



O'zbekiston Respublikasi  
Fanlar akademiyasi



# O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI



6  
2025

## MUNDARIJA

### Erkin A'zam tavalludining 75 yilligi

M.Asadov. Hayot, obraz va muallif konsepsiyasi ("Momaqaldiraq ostida sayr" romani misolida).....	3
O.Shofiyev. "Momaqaldiraq ostida sayr" romanida inson taqdiri va zamon drammatizmi.....	5
Sh.Rahmonova. Haqiqatning azaliy ta'mi.....	13

### Adabiyotshunoslik

B.To'xliyev. Milliy adabiyot nazariyasi.....	25
M.Xudoyqulov. Hajviy publitsistikaning o'ziga xos xususiyatlari.....	33
E.Ochilov. Alisher Navoiy va Shohiy Sabzavoriy.....	35
O.Avaznazarov. Adabiy-irfoniy tahlil va uning nazariy tamoyillari.....	44

### Tilshunoslik

Q.Sodiqov. "luġāt-i Navāyî"ning tuzilish prinsiplari.....	52
M.Dustmurodov. Kultarqan (arxanan) bitigidagi bir jumla xususida.....	61

### Ilmiy axborot

M.Mamatvaliyev. "Jaloliddin Manguberdi" dramasida badiiy to'qima va ijtimoiy reallik tanosibi.....	66
Sh.Olimov. Fitratning "Sharq siyosati" asari haqida.....	72
M.Hakimov. Obrazlilik haqidagi qarashlar tadriji.....	77
Y.Qosim, H.Hamroyeva. O'zbek-ozar adabiy aloqalarining yorqin namoyandasi.....	80
D.Sadullayeva. Zulfiya Qurolboy qizi nasrida psixologik parallelizm .....	85
D.Saidrahimova, G.Kalilova. O'zbek adabiyotshunosligida Aytmatov ijodining o'rganilishi.....	90
O.Abduraxmonova. Nishotiy adabiy merosini ilmiy tadqiq etish muammolari.....	93
S.Xamdamova. Atoiy va xalq og'zaki ijodi.....	97
S.Jo'raboyeva. Shavqiy Namangoniy ijodida istiora san'ati.....	101
N.Ismatullayeva. "Madaniy kod": talqin, tasnif va rivojlanish yo'nalishlari.....	105
A.Ubaydullayev. "Guliston" tarjimasida irfoniy istilohlarning berilishi.....	110
M.Tursunov. Metaforalarning poetik maqsadni yuzaga chiqarishdagi ahamiyati.....	114

### Fanimiz zahmatkashlari

P.Kenjayeva. Serqirra olim.....	119
H.Jo'rayeva. Hamidjon Homidiyning ilmiy-ijodiy faoliyati haqida.....	124

### Tanqid. Taqriz. Bibliografiya

N.Jo'raqulova. Mumtoz badiiyat sabog'i.....	128
---	-----

**"MADANIY KOD": TALQIN, TASNIF VA RIVOJLANISH  
YO'NALISHLARI**

Globalashuv jarayonida fan-texnika o'z taraqqiyot cho'qqisiga chiqib borayotgan bir paytda, antroposentrik tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Madaniyatlararo muloqotning samarali amalga oshishi, dunyo xalqlari va millatlarining o'zaro bir-birini tanishi uchun tarjimonlik faoliyati beqiyos hizmat ko'rsatmoqda. Shu tufayli tarjimashunoslikning ulkan hissasini aslo inkor etib bo'lmaydi. Tarjimashunoslik bir katta ilm sifatida "quduqni igna bilan qazigan"dek izchil, sinchkov va katta mehnat talab qiladi. Tarjimashunoslikning hali ochilmagan, o'zlashtirilmagan qirralari juda ko'p. Turli janrlarda, turli uslubdagi mualliflar qalamiga mansub turli tillardan amalga oshirilgan tarjimalarning ham xususiyatlari, o'rganadigan obyektlari turfa xildir. Tarjimonni tarjima faoliyatida eng mushkul ahvolga soladigan muammo aynan o'z madaniyatini boshqa bir madaniyat maydonida taqdim etishdir. Madaniyatni berishning o'z prinsiplari, qoidalari mavjud bo'lib, til birliklarini tashkil etadigan har qanday unsur diqqat markazidan qochirib bo'lmaydi.

"Madaniyat" so'zi keng ma'noli bo'lib, D.Katan madaniyatni anglashning uch asosiy bosqichini ko'rsatadi: 1) gumanistik ta'rif: madaniyat rivojlangan jamiyatga xos bo'lgan "sivilizatsiyalashganlik" sinonimi sifatida talqin qilinadi; 2) antropologik ta'rif: madaniyat xalqning turmush tarzi, kundalik hayot shakli sifatida qaraladi; 3) siyosiy-mafkuraviy ta'rif: madaniyat ijtimoiy ziddiyatlar maydoni va muayyan xatti-harakatlarning siyosiy sabablarini izlash vositasi sifatida tushuniladi<sup>1</sup>.

Diskursiv tahlil nuqtayi nazaridan, insoniy madaniyatlar – bu tarixan shakllangan, doimo qayta talqin qilinadigan va bahs-munozaralarga ochiq bo'lgan ma'no yaratish usullari bo'lib, ular asosan verbal va kontekstual ramzlar orqali namoyon bo'ladi<sup>2</sup>.

Madaniyatning turli darajalari Edvard T. Xoll tomonidan ishlab chiqilgan mashhur antropologik "aysber modeli", ya'ni "madaniyat triadasi"ga tayanadi. Ushbu model madaniyatni tizimli yondashuv asosida talqin qilish imkonini beruvchi o'lchovlardan birini taqdim etib, madaniy hodisalarni ko'rinadigan (suv sathidan yuqori), yarim ko'rinadigan va ko'rinmas qatlamlarga ajratadi<sup>3</sup>. Ushbu qatlam nomlarlarini giperonim sifatida umumlashtirgan holda, tarkibiy qismlari alohida giponim-madaniyat sifatida ajratish mumkin: a) texnik madaniyat – aysbergning ko'rinib turgan cho'qqisi. U san'at, musiqa, taomlar, me'morchilik va tilning to'g'ridan-to'g'ri referensial vazifasini o'z ichiga oladi; b) formal madaniyat – yarim yashirin, o'rta daraja. Jamiyatda "me'yoriy" yoki "maqbul" deb hisoblanadigan xatti-harakatlar shu qatlamga kiradi. Bu yerda muomala qoidalari, an'analar, diskurs uslublari va tarjima me'yorlari mujassamdir; c) oformal madaniyat – eng chuqur, ko'zga ko'rinmas ("ongdan tashqarida") daraja. Bu insonning "olam modeli", ya'ni asosiy qadriyatlar va e'tiqodlar tizimi bo'lib,

<sup>1</sup> Baker M., Saldanha G. Routledge encyclopedia of translation studies. – Routledge, 2019. – P. 70.

<sup>2</sup> Shi X. Beyond competence: A multiculturalist approach to intercultural communication / Beyond Misunderstanding. – John Benjamins, 2006. – P. 315.

<sup>3</sup> Baker M., Saldanha G. Routledge encyclopedia of translation studies. – P. 71.

shaxsiy identifikatsiyani shakllantiradi va borliqni idrok etishni belgilaydi. Mazkur darajalarning har biri o'z kodlar tizimiga ega bo'lib, tadqiqot obyektimiz bo'lgan "madaniy kod" tushunchasi bir makondan ikkinchi makonga ko'chishda dekodlash jarayonini boshdan kechiradi.

Madaniy kod termini XX asrdan boshlab deyarli barcha sohalarda faol ishlatilmoqda<sup>4</sup>. Shu o'rinda "kod" tushunchasining aynan lingvistika sohasidagi o'rganilishi masalasiga kelsak, "Tarjimashunoslik izohli lug'ati"da L.Nelyubin mazkur terminning 5 ta ma'nosini<sup>5</sup> keltiradi. Bulardan bizning ta'qinimizga uchunchi, ya'ni "axborotni uzatuvchi shartli belgilar tizimi" ta'rifi muvofiq keladi. G.Narziyevaning ishida "kod" deb til tizimi darajasidagi til birliklari majmui va ulardan foydalanish qoidalariga aytilishi<sup>6</sup> ko'rsatiladi. Kod so'zi insoniyatning qadim tarixida shu shaklda qo'llanmagan bo'lsa-da, biroq insoniyat tafakkurining izchil rivoji natijasida borliqni anglash, voqelikni idrok etish tamoyili shakllangach yuzaga kelgan ligini<sup>7</sup> ta'kidlaydi Z.Muqimova.

Tadqiqotchilar (Eko, Bart, Xoll) kodlarni denotativ (nisbatan "yopiq", transformatsiya qilishning qat'iy qoidalariga ega) va konnotativ (yanada "ochiq", madaniy hamda tarixiy jihatdan shartlangan) turlarga ajratadilar<sup>8</sup>. J.Korner madaniy kod tushunchasini akademik doiralarda yagona va qat'iy ta'rifga ega emasligini hamda tadqiqot an'alariga qarab turlicha talqin qilinishini ko'rsatadi. U mavjud ilmiy manbalarga tayangan holda, ushbu tushuncha rivojining uchta asosiy yo'nalishini ajratadi<sup>9</sup>. 1. Texnologik an'ana (kommunikatsiya nazariyasiga ko'ra). Bu yondashuvda kod xabarni signalga aylantirish va uni qayta tiklash vositasi sifatida talqin qilinadi. 2. Sotsiolingvistik an'ana. Bu yondashuvda kodlar ijtimoiy kontekstga qarab ma'nolarning verbal ifodalanishini belgilovchi xulq-atvor kodlari sifatida qaraladi va u ta'lim sotsiologiyasi hamda siyosiy sotsiologiyada keng qo'llanadi. 3. Semiotik va strukturalistik an'ana. Semiotikada kod ma'nolash jarayonini boshqaruvchi qoidalar tizimi sifatida tushuniladi.

N.Gordimerning tadqiqotlaridan shuni ko'rish mumkinki, madaniy kod elitaviy yoki tor doiraga xos bo'lishi mumkin. Olima "noliterar odamlar" haqida gapirar ekan, ularning o'qishi "yuqori" darajadagi adabiyot mo'ljallangan madaniy maydondan tashqarida kechishini nazarda tutadi. Bu esa madaniy kodning universal til emas, balki kontekstual ramka ekanini tasdiqlaydi: u bir tomondan odamlarni birlashtiradi, boshqa tomondan esa tegishli "kalit"ga ega bo'lmaganlarni chetlashtirishi mumkin<sup>10</sup>. Gordimerning madaniy kod tushunchasini adabiyotda qo'llashi kodlar tizimida xulq-atvor xususiyatlarining oydinlashishiga xizmat qiladi.

Sotsiologlar H.E.Aldrich, T.Yangning tadqiqotlariga ko'ra madaniy kodlarning individga ta'sirini tushuntiruvchi ikki asosiy yondashuv ajratiladi:

---

<sup>4</sup> M u q i m o v a Z.R. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasiidagi o'rni (o'zbek tili barqaror birliklari misolida). DSc. avtoref. – Toshkent, 2025, 16-bet.

<sup>5</sup> Н е л ю б и н Л.Л. Толковый переводоведческий словарь. – М.: Флинта: "Наука", 2009. – С. 78.

<sup>6</sup> N a r z i y e v a G.A. Media-internetda tilning milliy-madaniy kodi (publitsistik uslub misolida). PhD avtoref. – Qo'qon, 2025, 14-bet.

<sup>7</sup> M u q i m o v a Z.R. Lingvomadaniy kodlarning olamning lisoniy manzarasiidagi o'rni (o'zbek tili barqaror birliklari misolida). DSc. avtoref. – Toshkent, 2025, 16-bet.

<sup>8</sup> C o r n e r J. Codes and cultural analysis / Media, Culture & Society, 1980, T. 2, №. 1. – P. 78

<sup>9</sup> O'sha joyda, 74-bet.

<sup>10</sup> G o r d i m e r N. Codes of Culture / The Bucknell Review, 1993, V. 37, №. 1. – P. 21.

"Qattiq" institutsionalizm (Hard Institutionalism). Bu yondashuvda madaniy kod ijtimoiy skript sifatida talqin qilinadi. Inson kimdir bo'lishni "tanlamaydi", balki ommaviy axborot vositalari, ta'lim va davlat institutlari orqali uzatiladigan tayyor identiklikni (masalan, tadbirkor roli) o'zlashtiradi<sup>11</sup>. "Yumshoq" institutsionalizm (Soft Institutionalism). Bu yondashuvda kod individ singib ketgan ma'nolar tizimi sifatida tushuniladi. U qat'iy cheklov emas, balki ijodiy resurs bo'lib, kishi o'z odatlari va tanish reaksiyalariga tayangan holda imkoniyatlarni ongli ravishda talqin qiladi<sup>12</sup>. Demak, "qattiq" va "yumshoq" institutsionalizm madaniy kodning shaxsiga ta'sirini ikki qarama-qarshi, ammo bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishda izohlaydi. Shu bois, madaniy kod bir tomondan ijtimoiy me'yorlarni mustahkamlovchi mexanizm bo'lsa, ikkinchi tomondan shaxsiy tajriba va interpretatsiya orqali qayta shakllanuvchi harakatdagi jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Xitoy tarjimashunosi Yan Shijan o'z tadqiqotida "kod" terminidan foydalangan bo'lsa-da, uning tadqiqotidagi markaziy tushuncha "madaniy element" (文化素 *wenhuasù*) hisoblanadi. U buni tarjimaning asosiy birligi, ya'ni madaniy jihatdan xos axborotni tashuvchi birlik sifatida talqin etadi<sup>13</sup>. Uning nuqtai nazariga ko'ra, muvaffaqiyatli tarjima oddiy lingvistik kod almashinuvi emas, balki madaniy elementlarning bir muhitdan boshqasiga to'laqonli "madaniy transplantatsiyasi"dir<sup>14</sup>.

N.N.Izotova olimlarning fikricha, madaniy kod – madaniyatning ma'no shakllantiruvchi, tuzilmaviy yadrosi ekanligini ta'kidlaydi<sup>15</sup>. D.V. Losev madaniy kod har bir xalq uchun xos bo'lgan, o'zaro aloqada bo'ladigan, jamoaviy ahamiyatga ega belgilar-ramzlar va qadriyatlar tizimini ifodalaydi hamda mazkur xalqning madaniy-tarixiy tajribasini o'zida mujassam etishini ko'rsatadi<sup>16</sup>. N.I.Tolstoy va S.M.Tolstovalarga ko'ra, madaniy kod ikkilamchi belgilar tizimi sifatida talqin qilinadi<sup>17</sup>. U milliy-madaniy va mental mazmunlar, konseptlar hamda stereotiplarni ifodalash uchun xizmat qiladi<sup>18</sup>.

Yuqoridagi fikrlardan farqli o'laroq, D.Xudoyberganova madaniy kod tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi: "Muayyan shaklda kodlangan madaniy axborot; olam manzarasidagi naturfaktlar (q.), artefaktlar (q.) hamda insonning ichki ruhiy olamini anglatuvchi tushunchalarni kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi. Madaniy kodni mutaxassislar madaniy mazmun va uning shakli o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi vosita, madaniyatni tushunish kaliti sifatida ta'riflab, uni xalq psixologiyasini belgilovchi omillardan biri deb hisoblaydilar. Madaniy kodlar lingvomadaniyat vakillari ongidagi muayyan tushunchaga bog'liq bo'lgan obrazlarni belgilab beradi, shu sababli ma'lum bir

<sup>11</sup> Aldrich H. E., Yang T. Lost in translation: Cultural codes are not blueprints / Strategic Entrepreneurship Journal, 2012. V. 6, №. 1. – P. 5.

<sup>12</sup> O'sha joyda, 6-bet.

<sup>13</sup> 杨仕章. 文化翻译学: 汉、俄、英. 北京: 商务印书馆, 2020. – 第113页.

<sup>14</sup> 杨仕章. 文化翻译学: 汉、俄、英. 北京: 商务印书馆, 2020. – 第31页.

<sup>15</sup> Изотова Н.Н. К вопросу о прочтении "культурного кода" в лингвокультурологии / Культура и цивилизация, 2020, Т. 10, №. 4-1. – С. 5

<sup>16</sup> Лосев Д. В. Культурный код: определение понятия и практическая проблематика феномена: теоретический обзор. Pan-Art. 2024. Том 4. Выпуск 2. – С. 138.

<sup>17</sup> Изотова Н.Н. К вопросу о прочтении "культурного кода" в лингвокультурологии. – С. 6.

<sup>18</sup> Куликов Е.А. Национальные и культурные коды в романах Дэна Симмонса. Дисс. – Нижний Новгород, 2018. – С. 26.

madaniyatga xos obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo'ladi<sup>19</sup>.

Tadqiqotchilarning madaniy kodlar mohiyati borasida bergan ta'riflariga muvofiq ushbu tushunchani ifodalashda quyidagicha o'xshatishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

**Madaniyatning "genomi"**<sup>20</sup>, – uning rivojlanish asoslarini belgilovchi hamda insonning madaniy mahsulotlar bilan o'zaro munosabatini shakllantiruvchi tuzilma. Taklif etilgan konsepsiya doirasidagi madaniy kod madaniyatning o'ziga xos "genomi" sifatida namoyon bo'ladi. U madaniyat rivojining asoslarini belgilaydi, insonning uning mahsulotlari bilan o'zaro aloqasi va ularni o'zlashtirish xususiyatini aniqlaydi, atrof-muhitni inson tomonidan madaniy jihatdan o'ziga xos tarzda egallash va qayta shakllantirishning asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi.

**Qadriyatlar matritsasi**<sup>21</sup> – madaniyat o'zgarimas (barqaror) birliklarini o'z ichiga oluvchi va axborotni muayyan belgilar (ramzlar) bilan bog'lash vositasi.

**To'r**<sup>22</sup> – madaniyat atrof-muhitga "yoyadigan" tizim bo'lib, u dunyoni bo'laklash, kategoriyalash, tuzilmalashtirish va baholash imkonini beradi.

**Shifr**<sup>23</sup> – madaniyatning asosiy ma'nolarini mujassam etuvchi va ijtimoiy guruhlarining mental xususiyatlarini anglashga xizmat qiluvchi dekodlovchi mexanizm.

Tahlillarga ko'ra, madaniy kod tushunchasining mohiyati va mazmun xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

**Olam manzarasi bilan bog'liqligi.** Madaniy kod muayyan jamiyatga xos bo'lgan olam manzarasi haqidagi madaniylashtirilgan tasavvurlar majmuasidir. U insonning olamni madaniy jihatdan o'zlashtirish tamoyillari va samaradorligini belgilaydi<sup>24</sup>. Madaniy kod madaniyatning obrazli-ramziy va qadriyatli mazmunini, uning etnik va milliy xususiyatlarini aniqlaydi.

**Arxetipik va psixologik asos.** Madaniy kodlar makoni kollektiv psixologiyani aks ettiruvchi arxetipik tasavvurlarga boy bo'lib, insoniyatning eng qadimiy qarashlari bilan uzviy bog'liqdir<sup>25</sup>. U mazkur madaniyat tashuvchisi bo'lgan xalqning ong osti tafakkuri va xulq-atvorining o'ziga xosligini belgilaydi.

**Ikkilamchi belgilar tizimi sifatida.** Madaniy kod ikkilamchi semiotik tizimlarga mansub bo'lib, uning elementlari dastlabki ma'nosidan tashqari, boshqa obyekt va hodisalarni ifodalash uchun qayta qo'llaniladi<sup>26</sup>.

**Til va identiklik bilan aloqadorligi.** Madaniy kod noyob madaniy xususiyatlarni aniqlashning kaliti hisoblanadi<sup>27</sup>. Til millatning madaniy kodi sifatida talqin qilinib, madaniyatni yaratish, rivojlantirish va saqlash vositasi

---

<sup>19</sup> Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent, 2015.

<sup>20</sup> Лосев Д.В. Кўрсатилган асар, 132-бет: Данилов А.Н. Культура как геном цивилизационного развития // Вопросы философии, 2021, №. 3. – С. 215 – 222.

<sup>21</sup> Изотова Н.Н. Кўрсатилган асар, 8-бет.

<sup>22</sup> Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультуроология. – М.: "Гнозис", 2002. – С. 232.

<sup>23</sup> Лосев Д.В. Кўрсатилган асар, 132-бет.

<sup>24</sup> Изотова Н.Н. Кўрсатилган асар, 6-бет.

<sup>25</sup> Маслова В.А., Пименова М.В. Коды лингвокультуры. – М.: "Флинта", 2016. – С. 16.

<sup>26</sup> Куликов Е.А. Кўрсатилган асар, 116-бет.

<sup>27</sup> Изотова Н.Н. Кўрсатилган асар, 5 – 11-бетлар.

vazifasini bajaradi<sup>28</sup>. Madaniy kod insonning etnik va milliy mavjudligi, ijtimoiy hamda madaniy identikligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

*Me'yorlar va qadriyatlar tizimi.* Kod – bu talqin barqarorligiga ega bo'lgan va kommunikativ salohiyatni saqlovchi belgilar hamda ularning kombinatsiyalari tizimidir<sup>29</sup>. U qadriyat yo'nalishlarini, shuningdek, faoliyatning turli shakllariga oid o'zaro bog'liq me'yorlar, cheklovlar va standartlar majmuasini o'z ichiga oladi. Madaniy kod hodisalarni "yaxshi/yomon", "to'g'ri/noto'g'ri" mezonlari asosida baholash imkonini beradi.

*Xulq-atvor modeli.* Madaniy kod stereotiplar shaklida ham namoyon bo'lib, ma'lum bir xalq va millatning ijtimoiy xulq-atvorini belgilab beradi. Muayyan xalqning hatti-harakatlari ma'lum stereotipik ramkalarda mujassam kodlar deshivrovkasi yordamida oydinlashadi.

Milliy-madaniy kodlar ko'p sonli, kesishuvchi, matnga shiddat bilan kirib boruvchi tabiati tufayli ba'zida uni anglashda muayyan qiyinchiliklar yuzaga keladi, lekin u real lingvistik vositalar, mavzular va motivlar orqali ifodalanadi<sup>30</sup>.

V.M.Savitskiy va Ye.V.Cherkasovalarning tahliliga ko'ra, madaniy kodlar quyidagi funksiyalarni bajaradi<sup>31</sup>:

– Modellastiruvchi funksiya – madaniy kodlar dunyo manzarasini belgilaydi va borliq haqidagi kollektiv tasavvurlar majmuasini o'zida mujassam etadi.

– Kumulyativ (saqlash) funksiya – qadriyatlar tizimini, shuningdek, madaniy va tilga oid kollektiv tajribani to'playdi, saqlaydi va avloddan avlodga uzatadi.

– Regulyativ (me'yorga solish) funksiya – tafakkur va xulq-atvor dasturi sifatida faoliyat yuritib, me'yorlar, cheklovlar va standartlar tizimini belgilaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, madaniy kod lingvistik tadqiqotlar doirasida madaniyatning ma'no shakllantiruvchi, barqaror va ko'p qatlamli yadrosi sifatida namoyon bo'ladi. U til, diskurs, qadriyatlar tizimi, identiklik va xulq-atvor modellarini bir butun mexanizmga birlashtiruvchi ikkilamchi belgilar tizimi bo'lib, madaniyatning uzluksiz davomiyligini ta'minlaydi. Madaniy kodning denotativ va konnotativ darajalari, uning arxetipik, psixologik hamda ijtimoiy asoslari madaniyatlararo muloqot va tarjima jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois madaniy kodni anglash va uni dekodlash mexanizmlarini o'rganish nafaqat lingvomadaniyatshunoslik va tarjimashunoslik, balki global kommunikatsiya sharoitida madaniyatlararo tushunishni chuqurlashtirishning muhim nazariy va amaliy asosi bo'lib xizmat qiladi.

**REZYUME:** Mazkur maqolada lingvistik tadqiqotlar doirasida madaniy kod tushunchasining nazariy asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda madaniy kodning antropologik, sotsiolingvistik, semiotik va tarjimashunoslik yo'nalishlaridagi talqinlari yoritilib, uning madaniyatning ma'no shakllantiruvchi, tuzilmaviy yadrosi sifatidagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, madaniy kodning olam manzarasi, identiklik, qadriyatlar tizimi, xulq-atvor modellari va tarjima jarayonidagi funksional roli aniqlanadi.

<sup>28</sup> Язык как культурный код нации. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2014. – С. 58.

<sup>29</sup> С а в и ц к и й В.М., Ч е р к а с о в а Е. В. Культурные и лингвокультурные коды: теоретический обзор // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2023. Т. 16. №. 12. – С. 4351 – 4358.

<sup>30</sup> N a r z i y e v a G.A. Media-internetda tilning milliy-madaniy kodi (publitsistik uslub misolida). PhD avtoref. – Qo'qon, 2025. – B. 14.

<sup>31</sup> С а в и ц к и й В.М., Ч е р к а с о в а Е.В. Кўрсатилган асар, 4355-бет.

**РЕЗЮМЕ:** В данной статье в рамках лингвистических исследований комплексно анализируются теоретические основы понятия культурного кода. В исследовании освещаются интерпретации культурного кода в антропологическом, социолингвистическом, семиотическом и переводоведческом направлениях, а также обосновывается его роль как смыслообразующего и структурного ядра культуры. Кроме того, определяется функциональная роль культурного кода в формировании картины мира, идентичности, системы ценностей, моделей поведения и в процессе перевода.

**RESUME:** This article provides a comprehensive analysis of the theoretical foundations of the concept of *cultural code* within the framework of linguistic research. The study examines anthropological, sociolinguistic, semiotic, and translation-oriented interpretations of cultural code and substantiates its role as the meaning-forming and structural core of culture. In addition, the functional role of cultural code in shaping the worldview, identity, value systems, behavioral models, and translation processes is identified.

**Tayanch soʻz va iboralar:** madaniy kod, lingvomadaniyat, tarjimashunoslik, semiotika, denotatsiya va konnotatsiya, madaniyat triadasi, identiklik, olam manzarasi, madaniyatlararo kommunikatsiya, xulq-atvor modeli, qadriyatlar tizimi.

**Ключевые слова и выражения:** культурный код, лингвокультура, переводоведение, семиотика, денотация и коннотация, триада культуры, идентичность, картина мира, межкультурная коммуникация, модель поведения, система ценностей.

**Key words and word expressions:** cultural code, linguoculture, translation studies, semiotics, denotation and connotation, cultural triad, identity, worldview, intercultural communication, behavioral model, value system.

**Alisher UBAYDULLAYEV**

## **"GULISTON" TARJIMASIDA IRFONiy ISTILOHLARNING BERILISHI**

Sharq mumtoz adabiyotining durdonalarini, xususan, tasavvufiy-irfoniy mazmun bilan yoʻgʻrilgan asarlarni tarjima qilish nafaqat til bilish qobiliyatini, balki tarjimondan yuksak falsafiy tayyorgarlik va hol ilmidan xabardorlikni talab etadi. Jahonning ilgʻor badiiy qarashlari taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan turkiy adabiyot uchun tasavvufiy adabiyot goʻyo bir tamal toshi kabidir. Shu maʼnoda, Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan Saʼdiy Sheroziy "Guliston" asarining tarjima qilinishi ikki til leksik qatlamining oʻzaro sintezi va maʼno koʻchish jarayonlarini tadqiq etish uchun boy manba hisoblanadi.

Tasavvuf leksikasi tarkibidagi har bir birlik zohiriy (lugʻaviy) va botiniy (istilohiy) maʼnolar dualizmiga asoslanadi. Tilshunoslikda eʼtirof etilganidek, irfon – amal va holning natijasidir, yodlash va soʻzlashning mahsuli emas<sup>1</sup>. Shu bois, Ogahiy tarjimasidagi irfoniy istilohlarni tadqiq etishda biz faqat lingvistik ekvivalentlikni emas, balki kognitiv va lingvokulturologik aspektlarni ham hisobga olishimiz zarur. Zero, tasavvufda maʼnaviy komillik yoʻli toʻrt bosqichga (shariat, tariqat, maʼrifat, haqiqat) ajratiladi va "Guliston" asaridagi didaktik hikoyatlar zamirida aynan shu bosqichlarga ishora qiluvchi ramziy istilohlar (masalan, *tariqat, darvesh, fano, baqo, hol, maqom* kabilar) muhim oʻrin tutadi.

Oʻzbek tili tasavvuf leksikasining mavzuiy guruhlarini tasniflashda mavhum tushunchalarni ifodalovchi istilohlar, shaxs ifodalovchi istilohlar, tasavvufiy timsol

<sup>1</sup> А х а т о в а М.С. Ўзбек тили тасаввуф лексикаси. ДД. – Тошкент, 2021, 30-бет.